

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
SIRDARYO VILOYATI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI BOSHQARMASI
MIRZAOBOD TUMANI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI**

Mamalatipova Nasiba Yusufovna



**"AGRESSIV BOLALAR VA UALAR BILAN
ISHLASH METODIKASI"**

*(maktabgacha ta'lism tashkilotlari pedagog-psixologlari hamda tarbiyachilari uchun
uslubiy qo'llanma)*

Mazkur uslubiy qo'llanmada bolalardagi agressiya, uning turlari, kelib chiqish sabablari hamda uni korreksiyalash va bartaraf etish omillari haqida bayon etiladi. Shuningdek, maktabgacha yosh davrda bolalardagi agressiv holatlarni korreksiyalash va bartaraf etishga xizmat qiluvechi turli metodikalar: o'yin, mashq, maslahatlar berilgan bo'lib, bundan maktabgacha ta'lism tashkilotlari pedagog-psixologlari, tarbiyachilar hamda tarbiyalanuvchilarning ota-onalari keng foydalanishlari ko'zda tutiladi.

**AGRESSIV BOLALAR VA UALAR BILAN
ISHLASH METODIKASI**

Mamalatipova Nasiba Yusufovna
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumani 18-DMTT Uslubchisi

KIRISH

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir.

Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

Bolalik agressiyasi ichki hissiy bezovtalik belgisi bo'lib, salbiy tajribalar majmuasi va psixologik himoyaning yetarli bo'lmagan usullaridan biridir.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bunday bolalar urish, sindirish va chimchilash uchun har qanday imkoniyatdan foydalanadilar. Ularning xatti-harakati ko‘pincha janjalga moyil bo‘ladi. Bunga javoban tajovuzkor xatti-harakatlarni qo‘zg‘atish uchun ular onasini, tarbiyachisini va tengdoshlarini g‘azablantirishga doimo tayyor. Kattalar “portlamagunicha” va bolalar janjalga tushmaguncha ular tinchlanmaydilar.

Masalan, bunday bolalar onasini g‘azablantirishi va uning qichqirig‘ini eshitish yoki yuziga shapaloq urish uchun ataylab sekinroq kiyinadi, qo‘llarini yuvishdan bosh tortadi va h.zo. Shundan so‘ng u yig‘lashga tayyor bo‘lib, to onasining tasalli va mehrini olgamaguncha tinchlanmaydi. Bu e’tiborni jalg qilishning g‘ayritabiyy usuli sanaladi. Ammo bu holat bolaning psixo-emotsional stress va to‘plangan ichki tashvishlardan “chiqish”i uchun yagona mexanizmdir.

Agressiv bolalar bilan ishlash tarbiyachilar uchun katta mehnat, mustahkam asabni talab etadi. Bunday bolalar bilan ishlashda tarbiyachidan yuqori mahorat talab etiladi. Biz “Agressiv bolalar va ular bilan ishlash metodikasi” nomli uslubiy qo‘llanmamizda maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning paydo bo‘lish sabablari, ularga ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik, e’tibor, shuningdek, agressiv bolalar bilan ishlash metodikasi hamda ulardagi agressiyalarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqdik.

Ushbu uslubiy qo‘llanmadan agressiv bolalarning ota-onalari hamda pedagog-tarbiyachilar foydalanishi mumkin.

BOLALAR AGRESSIYASI. AGRESSIV XATTI-HARAKATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLAR

Ilmiy adabiyotlarda “agressiya”ga (lotin.agressio-hujum) “yo‘naltirilgan salbiy xulq-atvor ijtimoiy muhitdagi qoidalar, normal amal qilmaslik, insonlarga ruhiy jismoniy zarar yetkazish” deya ta’rif beriladi.

Inson qaysi sohada faoliyat olib bormasin, o‘z faoliyati davomida agressiya, stress holatlariga duch keladi. Agressiya stress natijasida ishchi hodimlarda kayfiyat yo‘qligi, sog‘liqlarida bo‘lgan muammolar, ish qobiliyati samaradorligi susayishi kuzatilgan. Agressiya stress jarayonlari bu yosh bilan bog‘liq bo‘lmagan jarayon hisoblanadi. Sababi hozirgi kunga kelib bolalarda agressiv holatlar ko‘plab uchrayapti.

Agressiya xatti-harakatlari bolalarda ham uchrab ularda uyquni buzulishi, ovqatlanish tarzining buzilishi, asabiylashish, jizzakilik holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Bolalar agressiyasi bolalarga xos yo‘naltirilgan tajavvuzkorona xatti-harakatlar hisoblanadi. Bu davrda bolalarda alam, o‘ch olish tuyg‘usi, g‘azab, faqat “men” degan tushuncha paydo bo‘ladi. Ba’zi bir manbalarda agressiya bu bolalardagi qo‘rvunni yashirish holatlarida psixologik jihatdan o‘zlarini himoya qilishdir, deb ta’kidlanadi. Bola yosh davrlari inqirozi vaqtida qiyinchiliklarga duch keladi va natijada uning xatti-harakatlarida xarakterida agressiya holatlari seziladi. Agressiya holatlari bolada chuqr taassurot qoldiradi va agressiya holatining tugatilishi qiyin bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xatti-harakatlar har doim turli yo‘llar bilan ifodalanadi va bu xatti-harakatni bir necha turga bo‘lish mumkin:

1. Tashqi agressiya – atrofdagi odamlarga, hayvonlarga, o‘ynchoqlarga qaratilgan bo‘ladi. Bola qichqirishi, ismlarini chaqirishi, tahdid qilishi va boshqalarni masxara

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qilishi mumkin. Shuningdek, u o‘z tajovuzkorligini imo-ishoralar bilan ifodalashi mumkin – mushti yoki barmog‘i bilan tahdid qilish, qiyshayish, taqlid qilish. Og‘zaki va imo-ishorali agressiyadan tashqari, bola jismoniy kuch ham ishlatishi mumkin, ya’ni u tishlashi, tirlashi, jang qilishi, chimchilashi yoki urishi mumkin.

2. Ichki agressiya – bu agressiya bolaning o‘ziga qaratilgan bo‘ladi. U tirnoqlarini tishlashi, boshini devorga urishi, lablarini tishlashi, kirpiklarini yoki qoshlarini tortishi mumkin.

Agressiv bolalar xususiyatlari:

- Atrofdagilarga nisbatan qo‘rquv;
- O‘ziga va atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik;
- O‘zini nazorat qila olmaslik;
- Asabiylashish, kayfiyat yo‘qligi;
- O‘ziga nisbatan salbiy munosabatlarni his qilish va h.k.

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarga quyidagilar kiradi:

- Ruhiy zarba berish;
- Atrofdagilarga nisbatan taqlid;
- Jismoniy zo‘ravonlik (ba’zi vaqtlarda atrofdagilarga yoxud o‘ziga nisbatan zarar yetkazish).

Bolalardagi agressiv holatlarni paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar:

1. Nosog‘lom oila muhiti.
- Ota-onan mehridan uzoqligi;
- O‘zini kerak emasdek his qilish;
- Oilada farzandning o‘rni yo‘qligi;
- □Farzandining qiziqishlariga ota-onaning befarqligi;
- Oilada ota-onaning munosabatlarida urush va janjallar.
2. Kattalarning bolalarga munosabati.
- Bolaga taxdid qilish;
- Qo‘rquv uyg‘otish;
- Bolaga jismoniy zo‘ravonlik;
- Bolaga hukm o‘tkazish ayblovlari;
- Bola bilan negativ muloqotlar.
3. Bolaga ommaviy axborot vositalarining ta’siri.
- Jangari kinofilmlar;
- Yoshiga mos emas multfilimlar;
- Internet tarmoqlaridan ko‘p foydalanish zararli malumotlarni izlash.
4. Bolaning tengdoshlari bilan munosabatlari.
- Tengdoshlari orasidagi o‘rni;
- Tendoshlarining munosabatlari, ishonchsizligi va h.k.

BOLALARDAKI AGRESSIV XATTI-HARAKATLARNI KORREKSIYALASH

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning agressiv xatti-harakatlarini korreksiyalash uchun:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

1. Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun kelib chiqish sababini o‘rganish.
2. Har bir bola bilan individual psixolog-pedagog shug‘ullanishi.
3. Bolaga ta’sir etadigan agressiv omillarni kamaytirish uni ko‘rishiga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Psixologlarning yakka tartibda faqat bola bilan emas uziviy ravishda ota-onam hamda tarbiyachilar bilan shug‘ullanishi.
5. Agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun bolaga atrofdagi mo‘jizalarni, ko‘rsatish.
6. Bolada muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish.
7. Atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatlarni paydo qilish.
8. Ota-onalariga nisbatan ishonch tuyg‘usi yaxshi ko‘rish sevilish tuyg‘usini shakllantirish.
9. Qiziqish qobiliyatlarini o‘rganib chiqqan holda bolada o‘zi shug‘ullanishni, o‘zi bajarashni istagan mashg‘uloti uchun imkoniyat yaratib berish.
10. Bola kayfiyatini ko‘taruvchi musiqaterapiyasi, izoterapiyalardan foydalanish kabilar tavsiya etiladi.

AGRESSIV BOLALARGA BO‘LADIGAN MUNOSABATLAR

Agressiv bolaga qanday munosabatda bo‘lish kerak?

1-qoida. Kichik agressiyalarga e’tibor bermang. Bolalarning tajovuzkorligi xavfli bo‘lmasa, kattalar bolaning xatti-harakatiga quyidagi tarzda munosabatda bo‘lishlari tavsiya etiladi:

- bolaning reaktsiyasini “sezmaslik”;
- bolaning his-tuyg‘ularini tushunishingizni bildiring; “Men sening xafa bo‘lganiningni tushunaman”;
- bolaning e’tiborini biror narsaga chalg‘iting, masalan, biron bir vazifani bajarishni taklif qilish (o‘yin).

2-qoida. Harakatlarga e’tibor bering (bolaning shaxsiyatiga emas, balki xatti-harakatiga).

Agressiya paytida bolaning xatti-harakatlarini quyidagi iboralardan foydalanib tasvirlang:

- “Sen o‘zingni tajovuzkor tutyapsan” (haqiqat bayoni);
- “Jahling chiqayaptimi?” (statativ savol);
- “Meni xafa qilmoqchimisan?”;
- “Menga kuch ko‘rsatayapsanmi?” (agressiyaning sabablarini oshkor qilish);
- “Menga bunday ohangda gapirishlari yoqmaydi”.

Bayonotlardan birini talaffuz qilayotganda, kattalar xotirjamlik, xayrixohlikni va qat’iylikni ko‘rsatishi kerak. Faqat harakatga e’tibor qaratish lozim.

3-qoida. O‘zingizning salbiy his-tuyg‘ularingizni boshqaring. Bola g‘azabi, nafrati hamda achchiqlanishi orqali o‘zining tajovuzkorligini ko‘rsatadi. Agressiv bola bilan muloqotda bo‘lganda, xuddi shunday his-tuyg‘ular kattalarda paydo bo‘lishi mumkin.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ammo kattalar o‘zini tuta olishi kerak. Agressiyaga qarshi kurashda ijobiy namuna ko‘rsatish orqali o‘zingizni boshqaring.

4-qoida. Bolaning obro‘siga e’tibor qaratish. Bolalar ham kattalar singari o‘z nohaqligini tan olishi qiyin bo‘ladi. Atrofdagilar tomonidan uni muhokama etilishi bolaga zarar yetkazishi mumkin va bu keyinchalik ham faqat tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga olib keladi. Bolada shaxsiy obro‘sini saqlab qolish uchun u bilan quyidagi xatti-harakatlardan foydalaning:

- “Sen o‘zingni yomon his qilayapsan shekilli”, “Sen uni xafa qilmoqchi emasding” (bolaning aybdorligini ommaviy ravishda kamaytiring);
- talabingizni qisman yoki o‘z holicha bajarishiga ruxsat bering;
- bolaga o‘zaro kelishuv bilan shartnoma taklif qiling.

5-qoida. Agressiv bo‘lmagan xulq-atvorni ko‘rsating. Mojaro natijasida ikkala tomon ham nazoratni yo‘qotadi. Shuni esda tutish kerakki, bola qanchalik kichik bo‘lsa, tajovuzga javoban sizning xatti-harakatlaringiz shunchalik do‘stona bo‘lishi kerak. Shuning uchun bu holat quyidagi texnikalardan foydalanish mumkin:

- sukunat (bolani jimgina tinglang);
- o‘z holiga qo‘yish (bolaga yolg‘iz tinchlanish imkoniyatini bering);
- imo-ishoralar va yuz ifodalari bilan xotirjamlikni ilhomlantiring;
- hazillashmoq.

BOLALARDA AGRESSIYANI BARTARAF ETUVCHI MASHQLAR VA O‘YINLAR

“KAYFIYAT” O‘YINI

O‘yining borishi: Tarbiyachi bolalar bilan insonlarning kayfiyati har xil bo‘lishi to‘g‘risida rasmlar orqali suhabat o‘tkazadi.

Inson qiyofasidagi smayliklarni bolalar ko‘rsatib berishi so‘raladi. Qaysi smaylik chiroyli, qaysi xunuk ekanligi hamda xunuk smaylik qiyofasiga kirmaslikka chorlanadi.

“SALOMLASHISH” O‘YINI

Jarayonning borishi: Tarbiyachi bolalarni o‘zining atrofida yig‘adi. “Kelinglar hozir hamma bir-birini va meni ko‘rib turadigan bo‘lib yerga o‘tiramiz. Bolalar doiraga o‘tirishda tarbiyachi ularga shunday deydi: “Hozir men hammani ko‘rayotganligim va boshqalar ham meni va bir-birlaringizni ko‘rayotganligiga ishonch hosil qilishimiz uchun bir-birlarimiz bilan ko‘zimiz yordamida salomlashib chiqamiz. Birinchi bo‘lib men hamma bilan salomlashib chiqaman. Men salomlashib bo‘lganimdan so‘ng yonimdagи qo‘shnim hamma bilan salomlashadi”. (Tarbiyachi boshini biroz egib bir bolani ko‘ziga qarab salomlashadi. Salomlashib bo‘lgandan so‘ng yonida o‘tirgan bolaning yelkasiga turtib, salomlashish taklif etadi).

“BOLANGIZ AGRESSIVMI?” OTA-ONALAR UCHUN MINI-TEST

Bolaning agressivligi diagnostikasi

Savollarni o‘qing va javob bering: “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri”. Agar u boshqacha sodir bo‘lsa, tez-tez paydo bo‘ladigan variantni tanlang.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

1. Farzandingiz tengdoshlari orasida bo‘lganida, agressiv harakatlar soni (jismoniy, og‘zaki yoki boshqa odamlarning ob‘ektlariga qaratilgan) 3-4 yoki undan ko‘p harakatni tashkil qiladi.
2. Nizoli vaziyatda bola gapirishdan ko‘ra urishni afzal ko‘radi.
3. Agar unga boshqa bolada bo‘lgan narsa kerak bo‘lsa, u so‘rash yoki almashtirishni taklif qilishdan ko‘ra, uni olib qo‘yishni afzal ko‘radi.
4. Ba’zan bolangiz boshqa bolalar uning harakatlaridan yig‘lab, azob chekishlarini yoqtirishini sezasiz.
5. U nima uchun bunchalik agressiv harakat qilayotganini tushunmaysiz, chunki u xatti-harakatlar qoidalarini yoddan biladi.
6. Farzandingizga taxminiy vaziyatni taklif qiling: “Tasavvur qil, sen legodan chiroyli samolyot yasading va kimdir uni sindirib tashladi. Sen nima qilasan?”. Uning javobi agressivmi? (“Men ham urib, sindiraman... kabi”)
7. Uning rasmlari ko‘pincha tikanlar, tishlar, tirnoqlar va qurollar kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan yirtqich hayvonlar, super odamlar, yirtqichlarning tajovuzkor tasvirlari bilan to‘ldiriladi.
8. E’tibor bergenmisiz, bolangiz o‘z harakatlarini agressiv ekanligini tan olmaydi. Agar so‘rasangiz, u nima uchun bu variant “to‘g‘ri” ekanligini tushuntirishga doimo tayyor.
9. Sizningcha, uning tajovuzkorligi o‘ziga e’tiborni jalb qilish usulidir.

Ushbu savollarga qanchalik sizda “to‘g‘ri” degan javob ko‘p bo‘lsa, demak, sizning farzandingizda agressiya kuchli. Unga qarshi ish‘olib borish juda zarur!

“AGRESSIV BOLA” OTA-ONALARI UCHUN TAVSIYA HAMDA MASLAHATLAR

Bolalardagi agressiya (tajovuz)ga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin va bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasligini tushunish lozim. Sizning ota-onasi sifatidagi vazifangiz bolangizdagagi ushbu his-tuyg‘ularni tushunish va unga yordam berishdir. Ota-onalar uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Sabablarni tushunish: Farzandingizdagagi tajovuzga nima sabab bo‘lganini aniqlashga harakat qiling. Ehtimol, bu bog‘chadagi stress, tengdoshlari bilan muammolar yoki boshqalar bo‘lishi mumkin. Nima bo‘layotganini tushunish uchun bolangiz bilan buni muhokama qiling.
2. Bolangizda tuyg‘ularini boshqarishga o‘rgating: Farzandingizga his-tuyg‘ularini harakatlar bilan emas, balki so‘zlar bilan ifodalashni o‘rganishga yordam bering. Tuyg‘ulari normal ekanligini, biroq ularni nazorat qilishni o‘rganish muhimligi tushuntiring.
3. Bolangizni qo‘llab-quvvatlang: bolangiz uni tushunishingiz va qo‘llab-quvvatlashningizni bilishi kerak. U bilan o‘zini qanday his qilayotgani va salbiy his-tuyg‘ularga qanday dosh bera olishi haqida gaplashing.
4. Ijobiy tarbiya: bolangizdagagi yaxshi xulq-atvorini mukofotlang. Farzandingiz tinchgina muloqot qilsa, yaxshi ish qilsa yoki muammolarni hal qilishning konstruktiv usullarini topsa, buning uchun uni maqtang.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

5. Yordam so‘rang: Agar tajovuz davom etsa yoki tashvish tug‘dirsa, psixolog yoki bola rivojlanishi bo‘yicha mutaxassis bilan bog‘laning. Ular farzandingiz bilan ishslash uchun individual strategiyalarni taklif qilishlari mumkin.

Farzandingizga agressiyani yengishda sizning munosabatingiz va yordamingiz muhim rol o‘ynashini unutmang!!!

Shuningdek:

1. Farzandingiz bilan birga o‘ynang.
2. Farzandingizni kamsitmang yaxshi muomalada bo‘ling.
3. Farzandingizga haddan ziyod to‘silqlar qo‘ymang uni jismoniy jazolamang.
4. Farzandingizni qo‘rquitmang, atrofdagilarga nisbatan qo‘rquv paydo qilmang.
5. Farzandingiz bilan o‘rtangizda kelishmovchilik chiqqanda g‘azabingizni jilovlab, vaziyatni to‘g‘ri tushuntiring.
6. Farzandingizga e’tiborli bo‘ling, atrofdagilarga nisbatan g‘amxo‘rlik qilishi uchun imkon yarating.
7. Farzandingizni yaxshi ko‘rishingizni doimo eslatting.
8. Farzandingizni eshiting, qiziqishlari va savollariga javob bering, eng asosiysi oiladagi agressiv munosabatlarni yakunlang.

Xulosa: Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni korreksiyalashda 3 shaxsning ota-onaning, atrofdagi yaqin insonlarning va tarbiyachining bolaga qilayotgan munosabatalari: mehribonlik va g‘amxo‘rlik, ishonch tuyg‘ulari yordam bera oladi.

Mashxur oilaviy terapevt Virdjiniya Sair bolani kuniga bir necha marta quchoqlashni tavsiya etadi. Bu bolaga mehrni his qilishiga yordam beradi. D.B.Elkoninning fikricha, bolalardagi idrok qilish, fikr yuritish qobiliyatları ortib borgani sari, ehtiyojlari ham oshib boradi. Atrofdagilar bilan yaxshi munosabatga kirishish tuyg‘usi shakllanadi. Buning uchun esa bola ota-onaning hamda tarbiyachining yordami va rag‘batiga muhtoj bo‘ladi.